

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

M.M. HAMIDOV, T.R. HAMIDOVA

DEUTSCH

Qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlarining barcha bakalavriat
yo‘nalishlari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent - 2013

**Ushbu “DEUTSCH” o‘quv qo‘llanmasi ToshDAU o‘quv-
uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan**

Taqrizchilar:

Sh. Karimov – f.f.n., O‘zDJTU olmon filologiyasi fakulteti
“Leksika va stilistika” kafedrası professori

Y. Ismoilov – f.f.n., O‘zDJTU olmon filologiyasi fakulteti
dekani, dotsent

S. Xolmirzayeva – f.f.n., ToshDAU “O‘zbek tili va chet tillar”
kafedrası mudiri, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma nemis tili mutaxassislik fani sifatida o‘qitilmaydigan oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmani yaratishda Germaniya, Rossiya va O‘zbekiston olimlarining tajribalaridan keng foydalanilgan.

Qo‘llanmadan oliy oq‘uv yurti talabalaridan tashqari akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari, nemis tilini mustaqil o‘rganuvchilar va oliygohlarga o‘qishga kirishga tayyorgarlik ko‘rayotgan abituriyentlar ham unumli foydalanishlari mumkin.

Inhalt – Mundarija

Kirish	
Qo‘llanilgan qisqartmalar izohi	

Lektion 1.
Lektion 2.
Lektion 3.
Lektion 4.
Lektion 5.
Lektion 6.
Lektion 7.
Lektion 8.
Lektion 9.
Lektion 10.
Lektion 11.
Lektion 12.
Lektion 13.
Lektion 14.
Lektion 15.
Lektion 16.
Lektion 17.
Lektion 18.
Lektion 19.
Lektion 20.
Lektion 21.
Lektion 22.
Lektion 23.
Lektion 24.
Lektion 25.
Lektion 26.
Lektion 27.
Lektion 28.
Lektion 29.
Lektion 30.

So‘z boshi

Bugungi kunda yosh avlodni yetuk va barkamol qilib tarbiyalash davlatimizning o'z oldiga qo'ygan ustivor yo'nalishlaridan biridir.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 17 noyabrdagi №392- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nofilologik oliy o'quv yurtlari uchun "Xorijiy tillar" bo'yicha namunaviy dasturining talablari asosida yaratildi.

O'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi nemis tilini amaliy qo'llash ko'nikmalarini takomillashtirishdan iborat. Unda talabalar dastur asosida o'zlashtirgan nemis tili grammatikasi qoidalarini mustahkamlash va takrorlashlari uchun mashq hamda topshiriqlar berilgan. Ushbu mashq va topshiriqlar talabalarga mashg'ulotlarda o'tilgan grammatik qoidalar, namuna va qoliplarni o'z nutqlarida mustaqil qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishda yaqindan yordam beradi.

Qo'llanmadan o'rin olgan mashq va topshiriqlar grammatik mavzular bo'yicha joylashtirilgan. Ushbu mavzulardan keyin qo'shimcha mashqlar berilgan bo'lib, ular aks ettirilgan material turli grammatik mavzularni qamrab olgan. Topshiriqlar quyidagi turli maqsadlarga: tushirib qoldirilgan elementlarni (artikllar, predloglar, bog'lovchilar va boshqa so'z hamda so'z shakllari) tiklash, gap yoki kontekstga mos keluvchi elementni topib, o'z o'rniga qo'yish yoki berilgan so'z yoki so'z shakllaridan mosini tanlash, gapdagi muayyan so'zning shakli yoki mazmunini o'zgartirish, savollarga javob berish, gap bo'laklariga savollar tuzish, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlarini aniqlash va topish, so'zlar, iboralar, gaplar va kichik hajmdagi matnlarni nemis tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qilish kabi bir qator grammatik mashqlarni muvaffaqiyatli bajarishga qaratilgan.

Qo'llanmani tuzishda nemis tili grammatikasiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yaratilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanmadagi har bir dars quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Fonetik mashqlar.

Ushbu bo'limda nemis tili fonetikasi qoidalari asosida mashqlar keltirilgan.

2. Og'zaki nutqni shakllantirish uchun savol-javoblar.

Og'zaki nutq malakalarini o'stirish maqsadida kundalik hayotimizga oid bo'lgan turli savollar berilgan. Savollar dars uchun berilgan grammatik qoidalarni mustahkamlashda yordam beradi.

3. Grammatikaga oid qoidalar, jadvallar, mashqlar.

Har bir darsda grammatik qoidalarni mustahkamlash uchun grammatik jadvallar va mashqlar keltirilgan.

4. Turli xil mavzularda matnlar, savol-javoblar, leksik mashqlar.

Yuqorida keltirilgan grammatik qoidalarni inobatga olgan holda matnlar uchun savol-javoblar hamda leksik mashqlar berilgan.

LEKTION 1

PHONETIK: Das deutsche Alphabet.

THEMA: Bekanntmachung, Begrüßung und Abschied.

DAS DEUTSCHE ALPHABET

Nemis tili alifbosi

Tilda harflarning muayyan tartibda joylashtirilishiga alifbo deyiladi.

Nemis tili alifbosida 26 ta harf bor bo‘lib, ulardan 6 tasi unli (a, e, i, o, u, y) qolgan 20 tasi undoshdir. Har bir tilda bo‘lganidek, nemis tili harflari ham bosma va yozma, katta va kichik yozilish shakllariga egadir.

Nemis tilidagi 26 ta harf 45 ta tovushni ifodalaydi. Har bir harfning qanday tovushni ifodalashi uning so‘zdagi o‘rni, boshqa harf bilan birikib kelishiga bog‘liq bo‘ladi.

Quyida ana shunday holatlarni ko‘rib chiqamiz:

1. Nemis tilidagi „a“ harfi so‘zdagi o‘rnidan qat’iy nazar bitta tovushni ifodalaydi. Nemis tilidagi [a] tovushi o‘zbek tilidagi [a] tovushiga o‘xshab o‘qiladi: Ada, Adler, Anna.

2. Nemis tilidagi „b“ harfi so‘zdagi o‘rniga ko‘ra ikki tovushni anglatadi:

a) unlilardan oldin va ikki unli o‘rtasida o‘zbekchadagi jarangli portlovchi [b] tovushi singari o‘qiladi: baden, abends, aber, eben.

b) bo‘g‘in va so‘z oxirida hamda jarangsiz undoshlardan oldin esa „b“ harfi jarangsizlanadi va o‘zbekchadagi jarangsiz [p] tovushidek o‘qiladi: ab, ob, lebt, Herbst.

3. Nemis tilidagi „c“ harfi ikki tovushni anglatadi. Bu harf a, o, u unlilaridan oldin kelsa, o‘zbekchadagi [k] (Cafe, Conto) kabi i, e, ie, ä, ü, ö unlilaridan oldin esa o‘zbekchadagi [ts] tovushiga o‘xshab o‘qiladi: Cäsar, Cent.

Bu harf nemis tiliga xos emas, ya’ni u asli nemischa bo‘lgan so‘zlarda uchramaydi. Uni faqat nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlardagina uchratish mumkin. Shu sababli bu harf so‘zning qaysi tildan qabul qilinganligiga ko‘ra boshqacha talaffuz

qilinishi ham mumkin. Masalan: italyanча Cello-chello, fransuzча Centime-satim o‘qiladi.

4. Nemis tilidagi „d“ harfi ikki xil o‘qiladi. Unlilardan oldin va ikki unli o‘rtasida kelsa, o‘zbekchadagi jarangli [d] tovushidek: der, das, baden, Leder; so‘z va bo‘g‘in oxirida kelsa, [t] aytilsa ham, „d“ yoziladi: Land, Band, Herdmeister.

5. Nemischa „e“ harfining o‘qilish xususiyati to‘rt xil:

a) ochiq bo‘g‘in, shartli yopiq bo‘g‘in, urg‘uli bo‘g‘in oxirida o‘zbek tilidagi „yemoq, yemirilish“ so‘zlaridagi [e:] kabi o‘qiladi. Leda, Weg, Helena.

b) yopiq bo‘g‘in, qo‘sh undosh, ikki yoki undan ortiq tovushlardan oldin kelsa, o‘zbekchadagi etik, eshik so‘zlaridagi [e] tovushidek o‘qiladi: Sendung, Bett, Werk

c) urg‘usiz bo‘g‘inda kelgan „e“ harfi reduksiyaga uchraydi, ya‘ni zaif o‘qiladi. Bu „Murmellaut“ deyiladi. Bu tovushning talaffuzi o‘zbek tilida so‘zning oxirgi bo‘g‘inida keladigan [i] (bordi, kelamiz) tovushining o‘qilishiga o‘xshab ketadi: andere, Mantel, kommen.

d) „i“ unlisidan keyin kelgan „e“ harfi o‘qilmaydi, [i] tovushining cho‘zib o‘qilishini bildirib, cho‘ziqlik belgisi vazifasini o‘taydi: sie, liegen, Tier.

6. Nemis tilidagi „f“ harfi o‘zbekchadagi [f] tovushi kabi o‘qiladi: Fabrik, Fenster, fett.

7. Nemis tilidagi „g“ harfi ikki xil talaffuz qilinib, unlilardan oldin yoki ikki unli o‘rtasida kelsa, o‘zbekchadagi jarangli [g] tovushiga o‘xshab o‘qiladi: gehen, Gans, gut, legen.

Bo‘g‘in, so‘z oxiri va jarangsiz tovushlardan oldin kelsa, o‘zbekchadagi [k] tovushiga yaqin o‘qiladi, lekin bu harfi [k] tovushidek o‘qilsa ham, yozuvda „g“ yoziladi: Weg, liegt, tagt.

Bu harf fransuz tilidan kirib kelgan ayrim so‘zlarda „jurnal“ so‘zidagi [j] tovushiga o‘xshab o‘qilishi ham mumkin: Geniegeniy, genieren-uyalmoq.

8. Nemis tilidagi „h“ harfini o‘qishda ikki narsaga e’tibor berish lozim:

a) so‘z va bo‘g‘inning boshida kelgan „h“ harfi o‘zbek tilidagi jarangsiz (h) tovushiga o‘xshab o‘qiladi: haben, woher?, dahin, Hase.

b) unidan keyin, ikki unli o‘rtasida kelgan „h“ harfi o‘qilmaydi, u faqat oldida kelayotgan unlining cho‘ziqligini bildiradi: Bahn, Lohn, sehen, gehen.

9. Nemis „i“ harfi o‘zbek [i] tovushiga o‘xshab o‘qiladi. Faqat „i“ harfining cho‘ziq (liegen, tief) va qisqa (Kind, Wind, lustig) talaffuz qilinish holatlariga e’tibor berish lozim.

10. Nemis tilidagi „j“ harfi o‘zbek tilidagi [y] tovushiga yaqin ifodalanadi: Junge, Jurte.

Bu harf ayrim chet tillardan kirgan so‘zlarda [j] yoki [j] tovushi kabi o‘qilishi mumkin: Juri-jyuri, Journal-jurnal, Jose-xose.

11. Nemis tilidagi „k“ harfi o‘zbek [q] harfidek o‘qiladi: Karte, kommen, Kur.

12. Nemis tilidagi „l“ harfi [l] tovushiga nisbatan biroz yumshoqroq talaffuz qilinadi: Liebe, Land, leben.

13. Nemis tilidagi „m“ harfi o‘zbekchadagi lab-burun [m] tovushiga yaqin turadi: Mann, Mutter, kommen, Lamm.

14. Nemis tilidagi „n“ harfi o‘zbekcha burun [n] tovushi kabi o‘qiladi: Name, kennen, Fenster.

15. Nemis tilidagi „o“ harfi so‘zdagi o‘rnidan qat’iy nazar, o‘zbekcha „o‘tin, o‘tov“ so‘zlaridagi [o‘] tovushiga o‘xshab talaffuz qilinadi: Lohn, Mond, Politik.

16. Nemis tilidagi „p“ harfi o‘zbek tilidagi jarangsiz [p] tovushidek o‘qiladi, faqat nemis tilida u biroz zarbliroq o‘qilishi lozim: Pappel, Mappe, pendeln.

17. Nemis tilidagi „q“ harfining talaffuzi o‘zbekchadagi [k] tovushiga o‘xshab ketadi.

U asosan nemis tilida chet tillardan kirgan soʻzlarda uchraydi. „Q“ harfi „u“ harfi bilan birga kelsa [kv] deb oʻqiladi: bequem, Qual, Quadrat, quaken, Quarz, Quantum.

18. Nemis tilidagi „r“ harfining oʻqilishi uning soʻzda kelish oʻrniga bogʻliq boʻladi:

a) soʻz va boʻgʻin boshida, unlilardan oldin, ikki unli oʻrtasida undoshlar bilan birga kelganda, oʻzbek tilidagi [gʻ] ga oʻxshab oʻqiladi: Rabe, Regen, aroma, Braten.

b) urgʻusiz boʻgʻinlarda yarim unli, yarim undoshlik xususiyatini kasb etib, oʻzbek tilidagi [r] kabi talaffuz etiladi: Mutter, Bücher, Verhör.

19. Nemis tilidagi „s“ harfi uch xil oʻqilish shakliga ega:

a) unlilardan oldin va ikki unli oʻrtasida oʻzbekcha [z] tovushiga yaqin oʻqiladi: Sand, lesen, sie, sehen.

b) boʻgʻin va soʻz oxirida oʻzbekcha [s] tovushidek talaffuz qilinadi: Maske, Haus, raus.

c) „s“ harfi soʻz (oʻzak) boshida p, t undoshlaridan oldin kelsa, oʻzbekchadagi [sh] tovushi kabi oʻqiladi, faqat sal shovqinliroq talaffuz etiladi: Sport, Student, bestehen.

20. Nemis tilidagi „t“ harfi oʻzbekcha jarangsiz portlovchi [t] tovushiga ancha yaqin boʻlib, faqat sal zarbliroq oʻqilishi kerak: Tante, Tisch, Bett.

Chet tillardan kirib kelgan ayrim soʻzlarda [ts] boʻlib ham oʻqiladi: Aktion, Diktion.

21. Nemis tilidagi „u“ harfi oʻzbekcha [u] tovushiga oʻxshaydi: Uta, Hut, unten, Ruhe.

22. Nemis tilidagi „v“ harfi ikki xil oʻqiladi:

a) nemischa soʻzlarda oʻzbekchadagi [f] tovushi kabi oʻqiladi, lekin „f“ kabi oʻqilsa ham [v] yoziladi: Vater, vier, von.

b) nemis tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarda oʻzbek tilidagi [v] tovushi kabi oʻqiladi: November, Nerven, Verb.

23. Nemis tilidagi „w“ harfi oʻzbekcha [v] tovushiga juda yaqin: Wand, Weber, Löwe.

24. Nemis tilidagi „x“ harfi o‘zbekchadagi [ks] kabi o‘qiladi: Marx, Text, Alexander.

25. Nemis tilidagi „y“ harfi ikki xil o‘qiladi. Birinchi holatda uy, kuy so‘zlaridagi [u] tovushi kabi o‘qiladi: Analyse.

Ikkinchi shakli o‘zbekcha [i] ga o‘xshab ketadi. U asosan chet tillardan kirgan so‘zlarda uchraydi: Jury – jyuri.

26. Nemis tilidagi „z“ harfi o‘zbekcha [ts] tovushi kabi o‘qiladi: Zone Zimmer, Arzt.

Yuqorida aytib o‘tilgan tovushlardan tashqari yana ayrim tovushlar borki, ular muayyan harflarning birikuvidan tashkil topadi:

1. „c“ va „h“ harflari „ch“ (tse - ha) birikmasini tashkil qiladi va bu birikma uch xil o‘qiladi:

a) „ch“ harflar birikmasi a, o, u unilari, au diftongidan keyin kelsa, o‘zbekchadagi „taxta, paxta“ so‘zlaridagi [x] tovushiga o‘xshab o‘qiladi va u [x] axlaut nomi bilan yuritiladi: Bach, doch, Buch.

b) „ch“ harflar birikmasi i, e, ä, ö, m, n, l, r, ei, eu, äu tovushlaridan keyin kelsa, h kabi o‘qiladi. Bu tovush [ç] ixlaut deb yuritiladi. Bu undosh tovush jarangsiz, sirg‘aluvchi, til o‘rta undosh tovushdir. Unitalaffuz qilish uchun til o‘rtasi tekis ko‘tarilib, orqa qismi tanglayning orqaroq qismiga yaqinlashtiriladi, tilning uchi esa pastki tishlar milkiga tekkizilib, o‘pkadan kelayotgan havo oqimi til va tanglay oralig‘ida hosil bo‘lgan tor bo‘shliqdan chiqaziladi: ich, echt, Bäche, Löcher, Bücher.

c) „ch“ harflar birikmasi „s“ harfidan oldin kelsa [k] tovushini beradi: Luchs wachsen, sechs.

d) „ig“ harflar birikmasi (qo‘shimchasi) ham so‘z oxirida ixlaut bo‘lib o‘qiladi: richtig, selig, wichtig.

2. „sch“ (es-tse-ha) harflar birikmasi bilan [sh] tovushini beradi. Nemischa [sch] o‘zbekchaga qaraganda sal shovqinliroq o‘qiladi: Schule, waschen.

3. „tsch“ (te-es-tse-ha) harflar birikmasi [ch] tovushni bildirib, o‘zbekcha [ch] ga qaraganda sal shovqinliroq o‘qiladi: Kutscher, Tschirtschik.

4. „Sh“ (es-ha) harflar birikmasi [j] tovushiga o‘xshab o‘qiladi va bu harflar birikmasi faqat boshqa tillardan kirgan so‘zlarda uchraydi: Shukow, Shenja.

5. „ng“ (en-ge) harflar birikmasi anglaut deyiladi va u o‘zbekchadagi [ng] tovushiga biroz o‘xshab talaffuz etiladi: lang, Menge, singen.

6. „n“ harfi o‘zak tarkibida „k“ harfidan oldin kelsa ham, [ng] day o‘qiladi: danken, senken.

7. „ck“ (tse-ka) harflar birikmasi o‘zbekchadagi [k] kabi o‘qiladi: Ecke, Decke, Sack

I. AKTIVER WORTSCHATZ

Übung 1. Lernen Sie die folgenden Vokabeln:

heißen vt – atamoq, atalmoq	sein vi – bo‘lmoq
Student m -en, -en – talaba	alt adj – qari; eski
Guten Morgen! – Xayrli tong!	Auf Wiedersehen! – Xayr!
Guten Tag! – Xayrli kun!	Tschüß! – Xayr!
Guten Abend! – Xayrli kech!	Gute Nacht! – Xayrli tun!

II. LEXIKALISCHE ÜBUNGEN

Übung 1. Lesen Sie.

[d], [t], [n], [m], [ts]

a) [a] a	[a:] a, ah, aa	[ə]	e
Damm an	da Ahn	Name	Atem
dann am	nah ahnt	Dame	ahnden
Mann Amt	Maat Adam		
b) [s] ss, ß	[z] s	[sh] sch, s (t)	[r] r
das	sah	Stadt	Rand
naß	saß	Stamm	rasch

satt	Saat	Tasche	Rat
Tasse	Nase	schade	Straße

[a:]	[a]	[a:]	[a]
da	dann	Maße	Masse
Staat	Stadt	Rate	Ratte
saß	naß	Maat	matt
Ahn	an	Saat	satt

c) [ɪ] i

mit	Tisch	Mitte	in
nimmt	ritt	sitzen	im
sind	Schritt	Tinte	immer
Sinn	tritt	Zimmer	ist

d) [i:] i, ih, ie

die	nie	ihm	[i:]	[ɪ]
diese	sie	ihn	Miete	Mitte
dieser	dir	Ihnen	nie	nimmer
dieses	mir	ihr	ihn	in
			ihm	im

e) die Tasche ist da Dieter Schmidt in Riesa
 die Tasse ist das Martin Zahn in Saßnitz
 die Straße ist die Marie Stamm in Arnstadt
 das Zimmer ist da Ada in Rathen
 im Zimmer Adam in Artern
 immer da Anna
 Das stimmt. Rita
 Sie sind immer da.

Übung 2. *Lernen Si e auswendig.*
 Guten Morgen! – Xayrli tong!
 Guten Tag! – Xayrli kun!

Guten Abend! – Xayrli kech!

Gute Nacht! – Xayrli tun!

Hello! – Salom!

Auf Wiedersehen – xayr

Tschüss – (poka), bo‘pti.

Übung 3. (Tanishuv) Bekanntmachung.

- Guten Tag!
- Guten Tag, wie heisst du?
- Ich heie Rano, und du, wie heisst du?
- Ich heie Zahro, woher kommst du?
- Ich komme aus Samarkand, und du?
- Ich komme aus Fergana, wie alt bist du?
- Ich bin 19 (Jahre alt). Und du?
- Ich bin 20.

Hausaufgabe: a) Antworten Sie auf die Fragen.

1. Wie heisst du?
2. Wo bist du geboren?
3. Wie alt bist du?
4. Was sind deine Eltern?

b) Bilden Sie einen Dialog.

LEKTION 2

PHONETIK: Unlilarning cho‘ziq va qisqa o‘qilishi. (ei, ai, au, äu, eu; ä, ö, ü) ning o‘qilishi.

GRAMMATIK: Kishilik olmoshlari.

TEXT: Unsere Familie.

I. AKTIVER WORTSCHATZ

Übung 1. Lernen Sie die folgenden Vokabeln:

Großvater <i>m</i> -s, -väter – bobo	Dreher <i>m</i> -s, - – tokar
Familie <i>f</i> -, -n – oila	besuchen <i>vt</i> – qatnamoq, bormoq
arbeiten <i>vi</i> – ishlamoq	Schwester <i>f</i> -, - – opa/ singil
Werk <i>n</i> -(e)s, -e – zavod	Sohn <i>m</i> -(e)s, Söhne – o‘g‘il
vorstellen <i>vt</i> – tanishtirmoq	Großmutter <i>f</i> -, -mütter – buvi
Kindergarten <i>m</i> -s, -gärten – bolalar bog‘chasi	Tochter <i>f</i> -, Töchter – qiz (farzand)
bestehen aus <i>vi</i> – ...dan iborat bo‘lmoq	Verwandte <i>m, f</i> -n, -n – qarindosh
Schneiderin <i>f</i> -, -nen – tikuvchi	Mutter <i>f</i> -, Mütter – ona
Kleiderfabrik <i>f</i> -, -en – kiyim-kechak fabrikasi	Onkel <i>m</i> -s, - – amaki, tog‘a
Person <i>f</i> -, -en – kishi, shaxs	Tante <i>f</i> -, -n – xola, amma
Vater <i>m</i> -s, Väter – ota	Neffe <i>m</i> -n, -n – jiyan (o‘g‘il)
	Enkel <i>m</i> -s, - – nevara (o‘g‘il)
	Nichte <i>f</i> -, -n – jiyan (qiz)
	Enkelin <i>f</i> -, -nen – nevara (qiz)

II. LEXIKALISCHE ÜBUNGEN

Übung 2. Beantworten Sie. Wer ist das?

1. Wer ist der Vater deines Vaters?
2. Wer ist die Mutter deines Vaters oder deiner Mutter?
3. Wer ist die Schwester deines Vaters oder deiner Mutter?
4. Wer ist der Bruder deines Vaters oder deiner Mutter?
5. Wer ist der Sohn deines Bruders oder deiner Schwester?

Übung 3. Lesen Sie folgende Wörter richtig.

Haben, Vater, fahren, fragen, sagen, Name, Saal, Hand, Wand, Dach, Bach, Land, Hof, Boot, Tor, Rock, Bär, spät, Käse, März,

hören, mögen, können, Süden, Bau, Frau, Speise, drei, frei, neu, teuer, Freund.

III. PHONETIK

Nemis tilida unli tovushlarning cho‘ziq va qisqa talaffuz qilinishiga rioya qilinmasa so‘z manosi o‘zgarib ketishi mumkin. Masalan:

cho‘ziq unlilar

der Staat (davlat)
der Beet (jo‘yak)
der Ofen (pechka)
zehren (qattiq toliqtirmoq)
ihm (unga)
Heer (qo‘shin)

qisqa unlilar

die Stadt (shahar)
das Bett (karavot)
offen (ochiq)
zerren (tortmoq, yirtmoq)
im (-da, ichida)
Herr (janob)

Unlilar quyidagi hollarda cho‘ziq oqiladi:

- qo‘sh unli so‘z o‘rtasida kelsa: *Saal, Boot, Beet;*
- unli ochiq bo‘g‘inda kelsa: *sagen, leben, Tiger;*
- shartli yopiq bo‘g‘inda kelsa: *Gras, Weg, Hof;*
- unlidan keyin cho‘ziqlik belgisi „h“ kelsa: *fahren, gehen, Schuhe;*
- unlidan keyin biror sonor tovush kelsa: *der, mir, nur;*
- ikki unli birikib kelsa: *bieten, niemand, sieben;*
- ayrim qoidadan mustasno hollarda ham unlilar cho‘ziq o‘qiladi: *Arzt, Erde;*

Unlilar quyidagi hollarda qisqa oqiladi:

- qo‘sh undoshlardan oldin: *Mann, Bett, Sommer;*
- ikki va undan ortiq har xil undoshlardan oldin: *Hemd, Dorf, Tisch;*
- yopiq bo‘g‘inda kelsa: *an, das, finden;*

- ixlaut, axlaut harf birikmalaridan oldin kelsa: *ich, wichtig, Dach, singen*;

Nemis tilida ikkita unli harf birikib, bir unli kabi o‘qilish holatlari mavjud.

Bunday harflar birikmasiga **diftong** deyiladi. Nemis tilida 3 ta diftong bor: ai, au, äu, (eu)

1) ai, ei harf birikmasi o‘zbek tilidagi „aylana“ so‘zidagi „ay“ tovushiga o‘xshab o‘qiladi. Masalan:

Mai	Speise
Zwei	arbeiten

2) au diftongi ifodalaydigan tovushning birinchi qismi „o“ kabi va ikkinchi qismi taxminan o‘zbekchadagi „o“ va „u“ tovushlari oralig‘ida talaffuz qilinishi kerak:

Bau	Haus
Aufgabe	brauchen

3) äu, eu harflar birikmasi o‘zbekcha „o‘y“ kabi o‘qiladi. Masalan:

neu	Freund
heute	Häuser

Nemis tilida umlaut yangi tovush hosil qilish bilan birga, so‘z yasash, forma yasash va so‘z ma’nosini o‘zgartirish xususiyatlariga ham ega.

ä (a - Umlaut)

ö (o - Umlaut)

ü (u - Umlaut)

Unlilarning mazkur xususiyatiga o‘xshashlik kirill yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida faqat bir holatda (e – ë harfida) uchraydi: Masalan: ep – ëp, ел – ëл, ет – ëт va boshqalar.

ä (a - Umlaut) o‘zbek tilidagi „etik, ertak“ so‘zlaridagi „e“ kabi o‘qiladi. Masalan: *zählen, März, Mädchen...*

ö (o - Umlaut) o‘zbek tilidagi „o‘t, o‘rdak“ so‘zlaridagi „o“ kabi o‘qiladi. Masalan: *Höhe, Höfe, mögen, schön ...*

ü (u - Umlaut) o‘zbek tilidagi „uy, kun“ so‘zlaridagi „u“ kabi o‘qiladi. Masalan: *für, üben, müssen ...*

IV. GRAMMATIK PERSONALPRONOMEN (Kishilik olmoshlari)

Kishilik olmoshlari birlik va ko‘plik shakliga ega bo‘lgan uch shaxsga, ko‘plikda qo‘llanadigan hurmat shakliga ega.

Kishilik olmoshlari kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

Singular (birlik)	Plural (ko‘plik)
I. ich	wir
II. du	ihr
III. er, sie, es	sie
Höflichkeitsform (hurmat shakli)	Sie

Birlik

N.	ich	du	er	sie	es
G.	meiner	deiner	seiner	ihrer	seiner
D.	mir	dir	ihm	ihr	ihm
A.	mich	dich	ihn	sie	es

Ko‘plik

N.	wir	ihr	sie	Sie
G.	unser	euer	ihrer	Ihrer
D.	uns	euch	ihnen	Ihnen
A.	uns	euch	sie	Sie

Übung 4. *Gebrauchen Sie die Personalpronomen statt der Substantive. (Ot o‘rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo‘llang)*

1. Wir sehen den Bus. 2. Er hilft dem Vater. 3. Er besucht seinen Freund sehr oft. 4. Sie gratuliert der Mutter. 5. Ich verstehe den Lehrer nicht. Er schreibt einen Brief. 7. Sie übersetzt ein Gedicht. 8. Dieses Auto gehört dem Lehrer. 9. Der Dozent erklärt die Regel. 10. Er schenkt sie seiner Freundin.

Übung 5. Setzen Sie die Personalpronomen ein und übersetzen Sie die Sätze.

1. Auf dem Tisch liegt ein Heft. ... ist blau. 2. In die Klasse kommt die Chemielehrerin. ... heißt Frau Kühn. 3. Das Auditorium Nummer 14 liegt im zweiten Stock. ... ist groß und hell. 4. Ich habe einen Hund. ... heißt Rex. 5. Das Haus auf dem Marktplatz ist alt, aber ... sieht schön aus. 6. Die Mutter geht früh zur Arbeit. ... arbeitet in der Bibliothek. 7. Der Lehrer gibt die Hausaufgabe für Donnerstag. ... ist groß und nicht leicht. 8. Wir lernen in der Musikstunde ein Lied, ... gefällt allen Schülern sehr gut. 9. Die Wohnung ist klein, ... besteht aus zwei Zimmern. 10. Im Sommer machen wir eine Reise nach Deutschland. ... dauert drei Wochen. 11. Der Hut ist sehr schön und ... kostet nicht viel. 12. An der Wand steht eine Couch. ... ist sehr bequem. 13. Im Herbst fallen die Blätter auf die Erde. ... sind rot, braun und gelb. 14. Das Kind ist noch klein und lernt nicht. ... geht in den Kindergarten. 15. Auf dem Lehrertisch liegt ein Kuli. ... ist blau. 16. An der Haltestelle steht nur ein Mann. ... wartet auf die Straßenbahn. 17. Das Kleid gefällt der Frau sehr, aber ... ist sehr teuer. 18. Ich kann die Übung nicht machen, ... ist zu schwer. 19. Der Zug kommt um 14 Uhr, ... hat fünf Minuten Verspätung. 20. Wir alle kennen das Mädchen gut, ... ist die Tochter des Direktors.

Übung 6. Öffnen Sie die Klammern und gebrauchen Sie die Personalpronomen im richtigen Kasus.

1. Darf ich (Sie) fragen? 2. Die Großmutter kauft (es) ein Spielzeug. Sie fragt (wir). 3. Ich bitte (du) mir zu helfen! 4. Der

Dozent gibt (sie – ular) die Aufgabe. 5. Der Junge schenkt (sie – *u*) Blumen. 6. Herr Ober, bringen Sie (wir) bitte eine Flasche Limo! 7. Meine deutsche Freundin schreibt (ich) nicht oft. 8. Der Deutschlehrer fragt (ich) neue Vokabeln. 9. Detlef ist krank, ich besuche (er) und bringe (er) die Hausaufgaben. 10. Das Lied ist wunderschön und die Kinder singen (es) sehr gern. 11. Der Vater holt (du) vom Bahnhof ab. 12. Der Bruder hilft (sie – *u*) bei der Arbeit. 13. Die Lehrerin sagt: „Kinder, ich bin mit (ihr) heute zufrieden.“ 14. Ich wünsche (Sie) alles Gute. 15. Die Vokabeln sind schwer, aber wir sollen (sie) alle auswendig lernen. 16. Tante Emma sagt uns: „Besucht mich morgen, ich sehe (ihr) immer so gern!“

IV. TEXT

Übung 7. *Lesen Sie den Text und übersetzen Sie ihn. (Matnni oqing va tarjima qiling)*

Unsere Familie

Ich heiße Umid Ergaschaliew. Darf ich euch unsere Familie vorstellen? Unsere Familie besteht aus 5 Personen. Mein Vater ist Dreher und arbeitet in einem großen Werk. Meine Mutter arbeitet in einer Kleiderfabrik. Sie ist Schneiderin.

Mein Bruder ist 12 Jahre alt. Er geht in die Schule. Meine Schwester ist erst zwei Jahre alt und besucht in den Kindergarten. Ich bin 20 Jahre alt. Ich bin Student. Ich studiere an der Taschkenter staatlichen Agraruniversität. Ich stehe im ersten Studienjahr. Ich werde Agronom.

Übung 8. *Vervollständigen Sie diese Sätze!*

Unsere Familie ... aus ... Personen. Mein Vater ist am ... geboren. Er ist Meine Mutter ... immer ... zu tun. Sie ist Mein ältester Bruder ist Er ist ... Jahre alt. Seine Frau arbeitet als Sie haben einen ... und eine Karims Großeltern sind

Übung 9. Beantworten Sie folgende Fragen!


1. Ist Ihre Familie groß? 2. Aus wie viel Personen besteht sie?
3. Wie alt sind Ihre Eltern? 4. Was sind Ihre Eltern von Beruf? 5. Wo arbeiten sie?

Übung 10. Sprechen Sie über Ihre Familie! Gebrauchen Sie dabei folgende Fragen! (Oilangiz haqida soʻzlab bering va quyidagi savollardan foydalaning)

1. Wie groß ist deine Familie?
2. Wie heißt deine Mutter? Wie alt ist sie?
3. Wie heißt dein Vater? Wie alt ist er?
4. Sind deine Großeltern am Leben? Wie alt sind sie?
5. Hast du Geschwister? Einen Bruder oder eine Schwester? Wie alt sind sie?
6. Wo wohnen deine Verwandten?
7. Wie heißen deine Tanten und deine Onkel?
8. Hast du einen Neffen oder eine Nichte?
9. Wie oft besuchst du deine Verwandten?

Übung 11. Das Kreuzworträtsel.

1. Der Sohn der Schwester.
2. Die Schwester des Vaters.
3. Die Mutter des Vaters.
4. Die Tochter des Bruders.
5. Der Vater und die Mutter.
6. Die Tochter des Onkels.
7. Der Sohn der Tochter.



LEKTION 3

GRAMMATIK: haben, sein va werden ko‘makchi fe‘llari. Darak gaplarda so‘z tartibi.

TEXT: Wer sind Sie? Was sind Sie?

I. AKTIVER WORTSCHATZ

Übung 1. *Lernen Sie die folgenden Vokabeln:*

<p>heißen <i>vt</i> – atamoq heißen <i>vi</i> – 1) atalmoq; 2) ma‘no bermoq erste – birinchi Studienjahr <i>n</i> -(e)s, -e – o‘quv yili, kurs jung <i>adj</i> – yosh werden <i>vi</i> (s) – bo‘lmoq Lehrer <i>m</i> -, -s, - – o‘qituvchi Lehrerin <i>f</i> -, -nen – muallima Studentin <i>f</i> -, -nen – toliba kommen <i>vi</i> (s) – kelmoq studieren – 1. <i>vt</i> o‘rganmoq, 2. <i>vi</i> o‘qimoq (oliyohda) Land <i>n</i> -, -es, Länder – qishloq, mamlakat pädagogisch – pedagogik vom Lande – qishloqdan die Hochschule <i>f</i> -, -n – oliy o‘quv yurti unverheiratet <i>adj</i> – turmush qurmagan, bo‘ydoq</p>	<p>ledig <i>adj</i> – uylanmagan, bo‘ydoq stehen <i>vi</i> – turmoq, bu yerda: „o‘qimoq“ ma‘nosida Bruder <i>m</i> -, -s, Brüder – aka/uka Schwester <i>f</i> -, - – opa/singil wohnen <i>vi</i> – yashamoq gehen <i>vi</i> (s) – bormoq Studentenheim <i>n</i> -(e)s, -e – talabalar turar joyi Schule <i>f</i> -, -n – maktab Mann <i>m</i> -, -es, Männer – erkak kishi, er Freund <i>m</i> -(e)s, -e – do‘st, oshna Frau <i>f</i> -, -en – ayol, xotin Eltern <i>pl</i> – ota-ona Kind <i>n</i> -, -es, -er – bola bei den Eltern – ota-onasinikida (uyida) Straße <i>f</i> -, -n – ko‘cha verheiratet <i>adj</i> – uylangan, turmush qurgan</p>
---	--

II. LEXIKALISCHE ÜBUNGEN

Übung 2. *Setzen Sie den richtigen Artikel ein.*

... Studentenheim, ... Straße, ... Frau, ... Schule, ... Kind,
... Mann, ... Schwester, ... Freund, ... Bruder, ... Eltern, ... Land,
... Hochschule, ... Student, ... Studentin, ... Lehrer, ... Lehrerin,
... Studienjahr.

Übung 3. Lesen Sie und übersetzen Sie den Text.

Ein Witz

- Hast du Zeit heute?
- Ja!
- Und morgen?
- Auch.
- Und am Sonntag?
- Am Sonntag nicht.
- Schade. Ich wollte dich am Sonntag zum Mittagessen einladen.

III. GRAMMATIK

Haben, sein, werden fe'llari nemis tilini o'rganishning birinchi bosqichida muhim rol o'ynaydi. Chunki barcha sodda gaplar va ko'pgina iboralar shu fe'llar yordamida yasaladi. Undan tashqari fe'l zamonlari va nisbatlari yasalishida bu fe'llarning ahamiyati kattadir. Bu fe'llar ko'makchi vazifasida kelganda o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Quyida har bir fe'lga alohida-alohida to'xtalamiz.

1. „**haben**“ fe'li o'zbek tilida „biror narsaga ega bo'lmoq“, „biror narsasi bor bo'lmoq“ kabi ma'nolarni anglatadi. Gapda tushum kelishigini boshqaradi.

Bu fe'lni o'rganish va uning ishtirokida gap tuzishda talabalar ancha qiynaladilar. Chunki uning o'zbek tilidagi ma'no ekvivalentlari „ega bo'lmoq“ – nimaga? jo'nalish kelishigini, „bor bo'lmoq“ esa, kimda? nimada? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin-payt kelishigini boshqaradi.

„**Haben**“ fe'li noto'g'ri tuslanuvchi fe'ldir. U Präsens (hozirgi zamon)da quyidagicha tuslanadi:

Birlik (Singular)

ich habe

Ko'plik (Plural)

wir haben

du hast	ihr habt
er	sie haben
sie } hat	Sie haben (Hurmat ma'nosida)
es	

2. „**Sein**“ fe'li o'zbek tilida „bo'lmoq“ fe'lining asosiy va qo'shimcha ma'nolariga mos keladi.

Ma'lumki, „bo'lmoq“ fe'li o'zbek tilida hozirgi zamonda deyarli qo'llanilmaydi. Nemis tilida esa „sein“ fe'li hozirgi zamonda albatta qo'llanilishi lozim.

„**Sein**“ fe'li gapda ot kesimning bir qismi bo'lib keladi va o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. U ot kesimning qo'shimchalariga to'g'ri keladi. Masalan:

<i>U talaba(dir).</i>	<i>Karim sportchi.</i>
<i>Er ist Student.</i>	<i>Karim ist Sportler.</i>
<i>Xona yorug'.</i>	<i>Men sog'man.</i>
<i>Das Zimmer ist hell.</i>	<i>Ich bin gesund.</i>

„**Sein**“ fe'li hozirgi zamonda quyidagicha tuslanadi:

Birlik (Singular)	Ko'plik (Plural)
ich bin	wir sind
du bist	ihr seid
er	sie sind
sie } ist	Sie sind
es	

3. „**Werden**“ yordamchi fe'li o'zbek tilida „bo'lmoq“ (kelasi zamon ma'nosida) „biror darajaga erishmoq“ kabi ma'nolarni anglatadi. Masalan:

Ich werde Lehrer. Men o'qituvch bo'laman.
Die Stadt wird größer und schöner. Shahar yanada kattaroq va go'zalroq bo'ladi.

Bu fe'l yordamchi va noto'g'ri tuslanuvchi fe'ldir, u Präsens (hozirgi zamon)da quyidagicha tuslanadi:

Birlik (Singular)

ich werde
du wirst
er
sie } wird
es

Ko'plik (Plural)

wir werden
ihr werdet
sie weden
Sie werden

Übung 4. Setzen Sie statt der Punkte „haben“ oder „sein“ ein. (Nuqtalar o'rniga *haben* yoki *sein* fe'llarining tegishlisini qo'ying)

1. Das Kind ... einen Ball. 2. Der Ball ... schön. 3. Die Nacht ... kalt. 4. Der Baum ... schon grün. 5. Du ... eine Zeitung. 6. Die Zeitung ... neu. 7. Wir ... keinen Unterricht. 8. Ihr ... morgen eine Vorlesung. 9. Sie ... lustig. 10. Mein Vater ... Lehrer.

Übung 5. Gebrauchen Sie das Hilfsverb „sein“ im Präsens und übersetzen Sie die Sätze:

1. Wir ... Schüler. 2. Warum ... du noch nicht fertig? 3. heute alle da in der Klasse? 4. Ihr ... nicht immer aufmerksam der Stunde. 5. Wo ... deine Eltern? 6. Mein Bruder ... Arzt von Beruf. 7. Ich ... krank und gehe in die Schule nicht. 8. Heute ... der 18. Dezember. 9. Emma und Inge lernen gut, sie ... fleißig. 10. Die Mutter arbeitet viel, nach der Arbeit... sie oft müde. 11. Fräulein Merdan, warum ... Sie so traurig?

Übung 6. Antworten Sie auf die Fragen:

1. Ist das ein Filzstift oder ein Bleistift? 2. Was ist das? 3. Sind deine Schulsachen immer in Ordnung? 4. Bist du fleißig oder faul? 5. Sind Sie fleißig oder faul? 6. Herr Lehrer, bin ich fleißig oder faul? 7. Wer ist fleißiger, du oder dein Freund? 8. Wer ist faul in deiner Klasse? 9. Wie ist diese Stadt? 10. Wo sind deine Schulsachen – links oder rechts? 11. Was ist dein Vater von

Beruf? 12. Bist du ein Schüler oder ein Lehrer (eine Schülerin oder eine Lehrerin)? 13. Sind heute alle da? 14. Wer ist heute nicht da? 15. Wie alt sind Sie?

Übung 7. Gebrauchen Sie das Hilfsverb im Präsens übersetzen Sie die Sätze.

1. Ich ... zu Hause eine kleine Bibliothek. 2. Der Vater ... immer sehr wenig Zeit. 3. ... Sie Fragen an mich? 4. Sie ... viele Freunde und schreibt oft ihnen Briefe. 5. Die Kinder spielen im Hof, sie ... eine Pause. 6. ... du einen Hund oder eine Katze? 7. Wir... täglich sechs Stunden Unterricht im Gymnasium. 8. ... ihr heute eure Deutschhefte mit? 9. Seine Eltern ... ein Haus auf dem Lande nicht weit von der Stadt. 10. Du... recht. 11. Meine Mutter ... viel zu tun.

Übung 8. Antworten Sie auf die Fragen:

1. Haben Sie viel Freizeit? 2. Hat deine Mutter viel Freizeit? 3. Haben deine Freunde viel Freizeit? 4. Hast du Hunger? 4. Haben Sie einen Hund oder eine Katze zu Hause? 5. Fräulein Müller, haben wir noch Zeit? 6. Hat dein Vater viel zu tun? 7. Hast du einen Freund oder eine Freundin im Ausland? 8. Wieviel Einwohner hat Berlin? 9. Habt ihr Angst vor den Prüfungen? 10. Was haben wir heute – Chemie oder Physik?

Übung 9. Gebrauchen Sie die Hilfsverben **sein** oder **haben** im Präsens und übersetzen Sie die Sätze:

1. Nicht alle Studenten... heute Wörterbücher. 2. Wer... heute Gruppendienst? 3. Ich ... nicht fertig, aber ich ... noch Zeit. 4. Wir ... dreimal in der Woche Literatur. 5.... Sie Hunger? 6. ... Sie hungrig? Meine Mutter ... Dolmetscherin von Beruf. 8. Mein Vater ... oft keine Zeit. 9. ... sie Amerikanerin oder Engländerin? 10. Herr Maus ... eine Tochter, sie ... 3 Jahre alt, 11. ... du einen Kuh? 12. Du ... heute nicht aufmerksam. 13. Du ... recht, dieser Film ...

nicht interessant. 14. Rechts ... die Schulbank meiner Freundin. 15. Die Schüler ... jetzt eine Pause. 16. Ihr ... schon müde und ... Hunger. 17. Wir ... jetzt in der Deutschstunde. 18. Hier ... Lehrbücher, Hefte und Filzstifte. 19. Hier ... ihr Bücher, Hefte und Filzstifte. 20. Ich ... krank – ich ... Husten und Schnupfen.

Übung 10. Gebrauchen Sie das Hilfsverb **werden** im Präsens:

1. ... du Buchhalter oder Mathematiker? 2. Der Lehrer sagt den Eltern: „Ich lobe Hans, er ... fleißiger“. 3. Ich habe Tiere gern und ... Tierarzt. 4. Im Sommer ... die Tage lang und die Nächte kurz. 5. Bald ... ihr schon groß und geht an die Hochschule. 6. Wie alt ... deine Großmutter in diesem Jahr? 7. Gehe nicht ohne Mantel auf die Straße – du ... krank. 8. Mit jedem Jahr ... wir klüger. 9. Es ... im Winter früh dunkel. 10. Wir antworten nicht gut und der Lehrer... böse.

Übung 11. Antworten Sie auf die Fragen:

1. Was wird deine Schwester? 2. Wie alt wird Herr Stein in diesem Jahr? 3. Wann werden die Tage kurz und die Nächte lang? 4. Wie wird es am Morgen – kälter oder wärmer? 5. Werdet ihr Mathematiker oder Physiker? 6. Wie wird der Himmel nach dem Gewitter? 7. Werden die Bäume und das Gras im Frühling grün? 8. Wird der Vati oft müde nach der Arbeit? 9. Ich komme heute nicht, wirst du mir nicht böse? 10. Um wieviel Uhr wird es schon hell?

DIE WORTFOLGE IM AUSSAGESATZ

(Darak gaplarda so‘z tartibi)

Voqea va hodisalarni tasdiq yoki inkor yo‘li bilan xabar qiluvchi gap darak gapdeb aytiladi.

Nemis tilida darak gaplarda 2 xil so‘z tartibi bor:

1) to‘g‘ri so‘z tartibli (die gerade Wortfolgi)

2) teskari so‘z tartibli (die ungerade Wortfolge)

To'g'ri so'z tartibli darak gaplarda birinchi o'rinda doimo ega, ikkinchi o'rinda kesim va ulardan keyin ikkinch darajali gap bo'laklari keladi:

Ich lebe in Urgentsch.

Mein Freund ist jetzt im Lesesaal.

ega + kesim + ikkinchi darajali gap bo'laklari Subjekt + Prädikat + Nebenglieder

Agar gap ikkinchi darajali gap bo'lagi bilan boshlansa, teskari so'z tartibli gap hisoblanadi. Bu holda birinchi o'rinda ikkinchi darajali bo'lak, ikkinchi o'rinda kesim va so'ngra ega keladi. Masalan:

In Chiwa lebt Lola.

Zwei Kinder hat sie jetzt.

Darak gaplardagi har ikkala so'z tartibida ham kesimning o'rni qat'iydir. U doimo ikkinchi o'rinda qo'llanilishi lozim.

Ikkinch darajali gap bo'lagi + kesim+ ega + ikkinch darajali gap bo'laklari Nebenglied+ Prädikat + Subjekt + Nebenglied
--

Heute arbeiten wir bis vier Uhr im Sprachlabor.

Übung 12. *Lesen Sie den Text und übersetzen Sie ins Usbekische.* (Matnni o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling)

Wer sind Sie? Was sind Sie?

Ich heiße Mirmuhsin Hamidow. Ich bin 18 Jahre alt. Ich bin Student. Ich studiere an der Taschkenter staatlichen Agraruniversität. Ich stehe im ersten Studienjahr. Ich werde Agronom. Ich komme vom Lande und wohne im Studentenheim.

Mein Freund Asad wohnt bei seinen Eltern. Sie wohnen in der Nawoistraße 14. Ich bin unverheiratet.

Ich habe zwei Brüder und eine Schwester. Meine Brüder gehen noch in die Schule. Meine Schwester Nargisa ist schon verheiratet. Sie hat einen Mann und zwei Kinder.

Synonyme

leben

Wir **leben** in Taschkent

} yashamoq

wohnen

Wir **wohnen** in der Nawoistraße 15.

Antonyme

alt (qari) – **jung** (yosh)

der Mann (erkak kishi) – **die Frau** (ayol kishi)

Wortfamilie

lehren – o‘qitmoq

der Lehrer – o‘qituvchi

die Lehrerin – ayol o‘qituvchi

Übung 13. *Antworten Sie auf folgende Fragen zum Text.*
(Matn asosida quyidagi savollarga javob bering)

1. Wie alt ist Mirmuhsin Hamidow? 2. Ist er Student? 3. Wo studiert er? 4. Steht er im zweiten Studienjahr? 5. In welchem Studienjahr steht Mirmuhsin Hamidow? 6. Woher kommt er? 7. Wer wohnt im Studentenheim? 8. Wer wohnt bei den Eltern? 9. In welcher Straße wohnt Asad? 10. Ist Mirmuhsin verheiratet?

Übung 14. *Sprechen Sie zu zweit! Gebrauchen Sie dabei folgende Fragen!*

1. Wie heißt du?
2. Woher kommst du?
3. Wo wohnst du?

4. Wie ist dein Familienstand?
5. Arbeitest du oder studierst du? Wo studierst du?
6. Hast du Hobbys?
7. Hast du Haustiere?
8. Was machst du abends?
9. Wohin gehst du am Wochenende?
10. Hast du Freunde?
11. Wie oft besuchst du deine Freunde?

Übung 15. *Übersetzen Sie folgende Sätze ins Deutsche. (Nemis tiliga tarjima qiling)*

1. Men talabaman. 2. Dilschod birinchi kursda o‘qiydi. 3. Biz 18 yoshadamiz. 4. Ota-onam qari(dirlar). 5. Asad hali uylanmagan. 6. Men universitetda o‘qiyman. 7. Ukalarim maktabga boradilar. 8. Umida turmushga chiqqan. Uning ikkita bolasi bor.

Übung 16. *Bilimlarni mustahkamlovchi vazifa.* (ha, yo‘q texnikasi).

1. Sind sie Student?
2. Sind Sie verheiratet?
3. Wohnen Sie im Studentenheim?
4. Haben Sie Freunde?
5. Stehen Sie im ersten Studienjahr?

LEKTION 4

GRAMMATIK: Numerale (Son)

DIALOG: Im Lebensmittelgeschäft

I. AKTIVER WORTSCHATZ

Übung 1. *Lernen Sie die folgenden Vokabeln:*

Mehl <i>n</i> -(e)s, -e – un	kosten <i>vi</i> – turmoq (narx)
Margarine <i>f</i> -, -n – margarin	Ei <i>n</i> -(e)s, -er – tuxum
Butter <i>f</i> -, - – sariyog‘	Fisch <i>m</i> -(e)s, -e – baliq
Paket <i>n</i> -(e)s, -e – paket	Fischdose <i>f</i> -, -n – baliq konserva
Salz <i>n</i> -(e)s, -e – tuz	Brot <i>n</i> -(e)s, -e – non
Päckchen <i>n</i> -s, - – quti	Brötchen <i>n</i> -s, - – bulochka, kulcha
Tee <i>m</i> -s, - – choy	frisch <i>adj</i> – yangi

II. LEXIKALISCHE ÜBUNGEN

Übung 2. Bilden Sie Wortpaare.

die Waren	bedienen
Einkäufe	anprobieren
die Einkäufe mit der Karte	kaufen
die Kunden	schließen
die Bäckerei	verpacken
einkaufen	abwiegen
schwarzen Tee	schmecken
Lebensmittel	nachzählen
Preise	bevorzugen
Kartoffeln	zerschneiden
Geld	bezahlen
die neue Hose	reduzieren
das Wechselgeld	sparen
gut oder schlecht	machen
die Wurst	gehen

Übung 3. Lesen Sie:

Radieschen, Zucker, Butter, Mehl, Haferflocken, Dill, Gurken, Salz, Backpulver, Öl, Milch, Wein, Saft, Zimt, hart gekochte Eier, Schnittlauch, Puderzucker, Petersilie, Sellerie, eine Zitrone, Rosinen, grüne Erbsen, Minze

III. GRAMMATIK

Narsa va voqea-hodisalarning son sanog'ini, miqdorini va tartibini anglatgan so'zlarga son deyiladi.

Ma'no xususiyatiga ko'ra sonlar sanoq, tartib va kasr sonlarga bo'linadi. Sanoq sonlar predmetning son-sanog'ini, miqdorini bildirib, wieviel? (qancha? necha? nechta?) so'rog'iga javob bo'ladi. Ular tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1. tub sonlar; 2. yasama sonlar; 3. qo'shma sonlar.

1. Birdan o'n ikkigacha bo'lgan sonlar tub sonlar hisoblanib, ular bir o'zakdan iboratdir:

1 – eins	5 – fünf	9 – neun
2 – zwei	6 – sechs	10 – zehn
3 – drei	7 – sieben	11 – elf
4 – vier	8 – acht	12 – zwölf

Shuningdek 100 – hundert, 1000 – tausend sanoq sonlari ham tub sonlarga kiradi.

2. Yasama sonlar tub son o'zagiga **-zig** (30 da **-ßig**) qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

20 – zwanzig	60 – sechzig
30 – dreißig	70 – siebzig
40 – vierzig	80 – achtzig
50 – fünfzig	90 – neunzig

Eslatma: Sechzehn, sechzig, sonida *s*, siebzig da **-en** tushib qoladi.

3. Ikki yoki undan ortiq sonlarning birikuvidan yasaladigan sonlar qo'shma sonlardir. Qo'shma sonlarga quyidagilar kiradi:

a) 13 dan 19 gacha bo'lgan sonlar yasama sonlardir. Bular tub songa **-zehn** sonini qo'shish bilan yasaladi.

13 – dreiz ehn	17 – siebz ehn
14 – vier zehn	18 – acht zehn
15 – fünf zehn	19 – neun zehn
16 – sech zehn	

b) 21 dan 99 gacha bo'lgan sonlarni yasash uchun sonlar orasiga **und** so'zi qo'shiladi.

21 – ein und zwanzig	35 – fünf und dreißig
22 – zwei und zwanzig	37 – sieben und dreißig
23 – drei und zwanzig	55 – fünf und fünfzig
24 – vier und zwanzig	91 – ein und neunzig

Bunday sonlarni ifodalashda oldin birlik son, so'ngra **und** so'zi va keyin o'nlik son qo'shib aytiladi.

c) Yuzlik sonlarni ifodalaganda esa oldin **hundert** soni birlik songa qo'shilgan holda birinchi o'rinda, so'ngra o'nlikning birligi ikkinchi o'rinda, **und** bog'lovchisi uchinchi o'rinda va o'nlik soni oxirgi o'rinda turadi.

101 – hunderteins
112 – hundertzwölf
135 – (ein)hundertfünfunddreißig
274 – zweihundertvierundsiebzig
452 – vierhundertzweiundfünfzig
987 – neunhundertsiebenundachtzig

d) To'rt xonali qo'shma sonlarni ifodalashda birliklarga **tausend** (ming) soni qo'shib birinchi o'rinda, ikkinchi o'rinda yuzliklar, uchinchi o'rinda esa o'nlikning birligi va **und** bog'lovchisi so'ngra esa o'nlikning o'zi keladi:

0,05 – Null Komma Null fünf

0,17 – Null Komma siebzehn

Übung 4. Lesen Sie folgende Zahlwörter. Schreiben Sie dann sie als Wörter.

1, 2, 5, 7, 13, 15, 20, 70, 90, 99, 100, 201, 450, 800, 950, 1000, 2010.

Übung 5. Schreiben Sie folgende Zahlwörter in Ziffern.

Acht, zehn, neunundfünfzig, vierundsechzig, dreiunddreißig, fünfundvierzig, einundachtzig, sechsundsechzig, siebenundsechzig, hundertfünf, zweihundertfünf, vierhundertzehn, neunhundert.

Übung 6. Antworten Sie auf die Fragen.

1. Der wievielte Tag der Woche ist der Dienstag?
2. Der wievielte Tag der Woche ist der Freitag?
3. Der wievielte Tag der Woche ist der Sonntag?
4. Der wievielte Monat des Jahres ist der September?
5. Der wievielte Monat des Jahres ist der April?
6. Der wievielte Monat des Jahres ist der Juli?
7. Welche Jahreszeit kommt nach dem Frühling?
8. Welche Jahreszeit kommt nach dem Sommer?
9. Welche Jahreszeit kommt nach dem Herbst?
10. Welche Jahreszeit kommt nach dem Winter?

IV. TEXT

Übung 7. Lesen und übersetzen Sie den Dialog.

Im Lebensmittelgeschäft

Verkäuferin: Guten Tag.

Frau Müller: Guten Tag.

Verkäuferin: Bitte, was wünschen Sie?

Frau Müller: Zwei Kilo Mehl, ein halbes Kilo Margarine und ein Stück Butter.

Verkäuferin: Wünschen Sie noch etwas?

Frau Müller: Ein Paket Salz und ein kleines Päckchen Tee.

Verkäuferin: Die Sorte zu 1,25?

Frau Müller: Ja, und zehn Eier, bitte! Sind sie auch frisch?

Verkäuferin: Sie sind gerade gekommen.

Frau Müller: Was kosten die Fischdosen?

Verkäuferin: Die kleinen Dosen 1,20 Euro und die großen 1,90 Euro. Ich empfehle sie Ihnen sehr.

Frau Müller: Ich nehme zwei Dosen zu 1,20 Euro.

Verkäuferin: Außerdem noch etwas?

Frau Müller: Ein frisches Brot und zehn Brötchen. Wieviel kostet alles?

Verkäuferin: Alles kostet 16 Euro.

Übung 8. Beantworten Sie die Fragen.

1. Wie oft gehen Sie einkaufen?
2. Machen Sie gern Einkäufe?
3. Welche Geschäfte gibt es in Ihrer Stadt? Was kann man dort kaufen?
4. Wann sind die Geschäfte gewöhnlich geöffnet / geschlossen?
5. Was schenken Sie gewöhnlich Ihren Freunden und Verwandten? Wo kaufen Sie das?
6. Sind Sie sparsam? Wie kann man Geld sparen?
7. Stellen Sie sich vor: Sie haben morgen eine Party. Sie erwarten viele Gäste zum Abendessen. Was müssen Sie heute im Supermarkt kaufen?

LEKTION 5

GRAMMATIK: Ot so‘z turkumi. Otlarning turlanishi.

DIALOG: Studentengespräch

I. AKTIVER WORTSCHATZ

Übung 1. *Lernen Sie die folgenden Vokabeln:*

Januar *m* |-s, -e| – yanvar

Februar *m* |-s, -e| – fevral

März *m* |-es, -e| – mart

April *m* |-s, -s| – aprel

Mai *m* |-s, -| – may

Juni *m* |-s, -s| – iyun

Juli *m* |-s, -s| – iyul

August *m* |-es, -e| – avgust

September *m* |-s, -| – sentabr

Oktober *m* |-s, -| – oktabr

November *m* |-s, -| – noyabr

Dezember *m* |-s| – dekabr

Montag *m* |-(e)s, -e| – dushanba

Dienstag *m* |-(e)s, -e| – seshanba

Mittwoch |-(e)s, -e| – chorshanba

Donnerstag *m* |-(e)s, -e| – payshanba

Freitag *m* |-(e)s, -e| – juma

Samstag *m* |-(e)s, -e| – shanba

Sonnabend *m* |-(e)s, -e| – shanba

Sonntag *m* |-(e)s, -e| – yakshanba

Sommer *m* |-s, -| – yoz

Herbst *m* |-(e)s, -e| – kuz

Winter *m* |-s, -| – qish

Frühling *m* |-s, -e| – bahor

II. LEXIKALISCHE ÜBUNGEN

Übung 2. *Ordnen Sie.*

der Dienstag

der Mittwoch

der Samstag

der Freitag

der Sonnabend

der Montag

der Donnerstag

der Sonntag

Übung 3. *Lernen Sie auswendig. Sprichwort*

Erst die Arbeit, dann das Spiel

Nach der Reise kommt das Ziel.

GRAMMATIK DAS SUBSTANTIV (Ot)

Narsa va hodisa nomlarini bildirib, wer? kim?, was? nima? soʻroqlariga javob beradigan soʻz turkumi ot deyiladi.

Masalan: *Das Buch, der Tisch, die Liebe, die Jugend*

Otlar barcha narsalarni nomlaydi. Masalan:

das Wasser – *suv*

der Tisch – *stol*

die Luft – *havo*

das Kleid – *koʻylak*

der Grund – *tuproq*

das Buch – *kitob*

das Feuer – *olov*

die Rakete – *raketa*

Otlar maʼno xususiyatiga koʻra atoqli otlar (die Eigennamen) – Chiwa, Leipzig, Werner, Sabir va turdosh otlar (die Gattungsnamen) die Stadt, der Berg, das Haus ga boʻlinadi.

Nemis tilida otlarda egalik kategoriyasi yoʻq. Narsaning birovga qarashli ekanligi egalik olmoshlari yordamida ifodalanadi. Masalan: *kitabim – mein Buch; vatanimiz – unsere Heimat.*

OTLARNING ROD KATEGORIYASI (DAS GRAMMATISCHE GESCHLECHT)

Nemis tilida otlar 3 xil grammatik rodga ega boʻlib, ularning oldida rodni koʻrsatuvchi **der, die, das** artikllari qoʻllanadi:

mujskoy rod – **das Maskulinum** (m)

jenskiy rod – **das Femininum** (f)

sredniy rod – **das Neutrum** (n)

Otning grammatik rodi artikl vositasida ifodalanib, **der** artikli mujskoy, **die** jenskiy, **das** sredniy roddagi otlar uchun qoʻllaniladi. Otlarning maʼlum bir rodga tegishliligi biologik jinslarda asosli boʻlsa-da, grammatika muayyan bir qoidaga boʻysunmaydi, yaʼni otlarda ayrim soʻz yasovchi qoʻshimchalardan (-er, -in, -lein, -ung,

-heit, ...) tashqari rod anglatuvchi hech qanday belgi yo‘q. Shu sabab nemis tilida har qanday ot artikl bilan qo‘llaniladi. Zero, ot yoki otlashgan so‘z oldida qo‘llangan artikl, otning rodi, soni va kelishigini bildirib keladi. Masalan: *kitab* so‘zi faqatgina *Buch* deyilsa xato bo‘ladi, uni artikl bilan *das Buch* deb o‘rganish lozim. Qo‘shma otlar ikki yoki undan ortiq so‘zlarning o‘zaro birikuvidan hosil bo‘ladi. Ularning rodi oxirgi so‘z rodiga qarab belgilanadi. Masalan: **die Arbeit + der Tag = der Arbeitstag.**

DEKLINATION DER SUBSTANTIVE

Otlarning turlanishi

Nemis tilida otlar birlikda 3 xil turlanishga ega:

1. kuchli turlanish (**die starke Deklination**)
2. kuchsiz turlanish (**die schwache Deklination**)
3. jenskiy roddagi otlarning turlanishi (**die Deklination der Substantive weiblichen Geschlechts**)

Kuchli turlanish

Kuchli turlanishga hamma sredniy roddagi otlar (das Herz so‘zidan boshqa) va mujskoy roddagi ko‘pchilik otlar kiradi. Bu turlanishning asosiy xususiyati shundan iboratki, otlar Genitiv kelishigida „s“ – „-es“ qo‘shimchasini oladi.

Kasus	Maskulinum	Neutrum
N.	der Tisch	das Mädchen
G.	des Tisches	des Mädchens
D.	dem Tisch	dem Mädchen
A.	den Tisch	das Mädchen

Kuchsiz turlanish

Kuchsiz turlanish faqat mujskoy roddagi otlarga xosdir. Uning o‘ziga xos belgisi shundaki, ot bosh kelishik (Nominativ) dan boshqa hamma kelishiklarda **-e(n)** qo‘shimchasini oladi.

Bu turlanishga mansub boʻlgan otlarni quyidagi guruhlarga boʻlish mumkin:

1) oxiri **-e** harfiga tugaydigan mujskoy roddagi jonli narsalarni ifodalaydigan otlar: *der Genosse, der Löwe, der Usbeke, der Kollege, der Knabe, der Matrose*

2) ilgari **-e** harfiga tugagan, ammo tilning rivojlanishi jarayonida uni yoʻqotgan otlar: *der Held, der Mensch, der Prinz, der Hirt, der Bär va b.*

3) **-ent, -ant, -ist, -nom, -soph, -rch, -log(e), -at, -et, -ot, -ard** suffiksli chet tillardan oʻzlashtirilgan mujskoy roddagi otlar: *der Aspirant, der Aktivist, der Philosoph, der Patriot va b.*

N.	der Löwe	der Mensch	der Soldat
G.	des Löwen	der Menschen	des Soldaten
D.	dem Löwen	dem Menschen	dem Soldaten
A.	den Löwen	den Menschen	den Soldaten

Jenskiy turlanish

Bu turlanishga jenskiy roddagi otlarning hammasi kiradi. Ot turlanganda hech qanday kelishik qoʻshimchasi olmaydi, faqat uning artikli oʻzgaradi, xolos:

N.	die Übung	die Tafel
G.	der Übung	der Tafel
D.	der Übung	der Tafel
A.	die Übung	die Tafel

Otlarning maxsus turlanishi

Ayrim das Herz, der Friede, der Name, der Same, der Funke, der Gedanke, der Schade, der Wille, der Fels, der Buchstabe kabi otlar borki, ular alohida turlanish xususiyatiga ega.

Bu turlanishda ot qaratqich kelishigi (Genitiv) da **-ens**, joʻnalish (Dativ) va tushum (Akkusativ) kelishigida **-en**

qo‘shimchasini oladi, faqat das Herz otigina tushum kelishigida qo‘shimcha olmaydi.

N.	der Name	das Herz
G.	des Namens	des Herzens
D.	dem Namen	dem Herzen
A.	den Namen	das Herz

Otlarning ko‘plikda turlanishi

Nemis tilida hamma otlar ko‘plikda bir xilda turlanadi. Ular ko‘plik suffiksidan tashqari faqat jo‘nalish kelishigida **-n** qo‘shimchasini oladi. Ko‘plik shakli **-en** yoki **-s** qo‘shimchasi orqali yasaladigan otlar jo‘nalish kelishigida **-n** qo‘shimchasini olmaydi. Masalan:

N.	die Bücher	die Studenten	die Parks
G.	der Bücher	der Studenten	der Parks
D.	den Büchern	den Studenten	den Parks
Akk.	die Bücher	die Studenten	die Parks

Nemis tilida kelishiklar

Nemis tilida to‘rtta kelishik mavjud:

1. Bosh kelishik (der Nominativ)
2. Qaratqich kelishigi (der Genitiv)
3. Jo‘nalish kelishigi (der Dativ)
4. Tushum kelishigi (der Akkusativ)

Bosh kelishik shaxs, narsa va hodisa nomlarini ifoda etib, wer? (kim?), was? (nima?) so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Qaratqich kelishigi asosan mansublik ma‘nosini bildirib, wessen? (kimning? nimaning?) so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Jo‘nalish kelishigi esa harakatning narsaga (hodisaga) bo‘lgan munosabatini ifodalaydi va wem? (kimga?, nimaga?), wo? (qayerda?), wann? (qachon?) so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Tushum kelishigi shaxs yoki narsaga nisbatan harakat yo‘nalishini ifoda etib, wen? (kimni?), was? (nimani?), wohin? (qayerga?) so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Übung 4. Setzen Sie das Substantiv **die Studentin** in den richtigen Kasus ein.

1. Die Antwort ... ist ausgezeichnet und die Lehrerin lobt sie. 2. ... versteht die Aufgabe nicht und fragt Herrn Berger noch einmal. 3. Der Lehrer wiederholt ... die Frage. 4. Monika ist krank, ihre Freunde besuchen ... und bringen dem Mädchen die Hausaufgaben.

Übung 5. Setzen Sie das Substantiv **das Mädchen** in den richtigen Kasus ein.

